

YANGI O'ZBEKISTONNI KORRUPSIYASIZ QURAMIZ.

Abdug'aniyev Temurbek Alimardon o'g'li

Namangan davlat universiteti Yuridik fakulteti Yurisprudensiya yo'nalishi

2-bosqich talabasi

temurbekabduganiyuv402@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola orqali biz korrupsiya nima va u keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan illatlar, muammolar va salbiy oqibatlarni keltirib chiqarayotganini tahlil qilish bilan birga bugungi kunda olib borilayotgan korrupsiyaga qarshi siyosatdan korrupsiya kamayaptimi yoki aksincha shular haqida fikr yuritamiz. Bundan tashqari dunyodagi va yurtimizdagi statistika bilan bog'liq ma'lumotlarni ham keltirib o'tamiz. Shu bilan birga taklif va fikr mulohazalarimizni bildiramiz.*

Kalit so'zlar: *Korrupsiya, Halollik vaktsinasi, davlat apparati, AQSH olimlari, korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy prinsiplari, qonuniylik, ochiq va shaffoflik.*

Abstract: *Through this article, we will analyze what corruption is and what it can cause, the problems and negative consequences it can cause, and we will think about whether the current anti-corruption policy is reducing corruption or not. In addition, we will also provide information related to the statistics of the world and our country. At the same time, we will express our suggestions and comments.*

Key words: *Corruption, Honesty vaccine, state apparatus, US scientists, main principles of fight against corruption, legality, openness and transparency.*

Аннотация: *В этой статье мы анализируем, что такое коррупция и к чему она может привести, какие проблемы и негативные последствия она может вызвать, а также подумаем, снижает ли нынешняя антикоррупционная политика коррупцию или нет. Кроме того, мы также предоставим информацию, связанную со статистикой мира и нашей страны, а также выскажем свои предложения и замечания.*

Ключевые слова: коррупция, вакцина честности, государственный аппарат, ученые США, основные принципы борьбы с коррупцией, законность, открытость и прозрачность.

Korrupsiya muammosi va unga qarshi kurash masalasi hozirgi davrning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki bu illatning keng quloch yoyishi o'ta salbiy oqibatlariga olib keladi. Korrupsiya, xususan, demokratik jarayonlarning amalga oshishiga to'sqinlik qiladi, iqtisodiy rivojlanishning sekinlashishi, kadrlar sifatining pasayishi va uning oqibatida barcha sohalarimizni oqsashiga, uyushgan jinoyatchilikning ildiz otishiga, hukumatga bo'lgan ishonch yo'qolishi va ijtimoiy-siyosiy beqarorlikka sabab bo'ladi. Korrupsiya haqida so'z yuritar ekanmiz, avvalo, bu so'zning lug'aviy ma'nosiga to'xtalsak. Korrupsiya lotincha «corrumpo» so'zidan olingan bo'lib, «poraga sotilish», «aynash» degan ma'noni bildiradi. Kengroq ifodalaydigan bo'lsak, mansabdor shaxsning mansabi bo'yicha berilgan huquq va vakolatlarini o'z manfaati yo'lida, shaxsiy boyish maqsadida suiiste'mol qilishidir. Korrupsiya davlat rivojiga va unda olib borilayotgan islohotlarga to'sqinlik qiladi. U davlatni nafaqat moddiy, balki ma'naviy-axloqiy jihatdan ham yemirib, ishonchsizlikni vujudga keltiradi. Bu esa Vatanga daxldorlik va ishonch tuyg'ularining so'nishiga olib keladi.

“Korrupsiya tushunchasini AQSH olimlari chuqurroq va har tomonlama o'rganganlar. Amerika tadqiqotchilari ushbu hodisani siyosiy arboblardan, davlat apparatining xodimlari, tadbirkorlar va boshqa shaxslarning shaxsiy, oilaviy yoki guruhviy manfaatlar yo'lida boyish hamda o'z ijtimoiy maqomini oshirish maqsadida o'zlarini rasmiy majburiyatlarini va davlat funksiyalarini bajarishdan bo'yin tovlashlari deb tariflaydilar¹,,. Bundan tashqari yana bir olimning fikrini misol qilib keltirmoqchiman va unga o'zimni subektiv fikrimni qo'shimcha qilib o'tmoqchiman. Н.Ф.Кузнецова Korrupsiyani ”Davlat apparati va davlat

¹ Михайлов Матай А.В. Борьба с коррупцией в США (80-е годы) // Вопросы истории:--1994.-№5ю

tuzilmalarining xizmatchilarini sotib olinilishida ifodalanadigan ijtimoiy xavfli hodisa²” deb ta'riflagan. Meni fikrimcha korrupsiyani faqat sotilish, poraxo'rlikdan iborat bo'lmagan ijtimoiy hodisa sifatida kengroq tushinish to'g'riroq bo'ladi deb hisoblayman.

Shu o'rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning fikrlarini keltirib o'tsam maqsadga muvofiq bo'lar edi. "Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, «Halollik vaksinasi» bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. «Halollik vaksinasi»ni qayerdan olamiz? Bu ta'bir majoziy, albatta, lekin biz shunday muhitni yaratishimiz kerak. Korrupsiyani ichki ishlar bilmaydimi, prokuratura, mahalla, nuroniylar bilmaydimi? Hamma biladi. Yonimizda yuribdi ular. Biz bu baloga vakcina qilib kurashmasak, kelajagimiz bo'lmaydi. Bu oyog'imizdagi kishan³,,. Demak yuqoridagi fikrdan ma'lumki yurtboshimiz takidlaganlaridek korrupsiyani ildizi bilan qurutmas ekanmiz korrupsiya bilan hech qachon o'z maqsadimizga erisha olmaymiz. Bu illat jamiyatni tanazzulga olib keladi, qonun ustuvorligiga putur yetkazadi. Bizga uzoq yillik tarixdan ma'lumki qonun ustuvor bo'lmagan jamiyat tez zavolga yuz tutadi va fuqarolar huquqlari bilan bog'liq muammolar ko'p uchraydi. Ushbu qing'ir yo'l jamiyatni, xalqni parokandalikka yetaklaydi. Mustaqillik yillaridayoq korrupsiyaga qarshi keng ko'lamli ishlar olib borilgani bunga yaqqol misol qilib <<Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida >> qonun qabul qilingani ham alohida e'tiborga loyiqdir. Bu qonundan birgina misol berib o'tsam "Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

qonuniylik;

fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

² Криминология / Под ред. Н Ф Кулевой, Г. М. Миньковского-М.1994.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat MIRZIYOYEVning Oliy Majlisga Murojaatnomasidan, 2020-yil 24-yanvar.

ochiqlik va shaffoflik;

tizimlilik;

davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;

korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi;

Javobgarlikning muqarrarligi⁴, bu prinsiplarga tayanib ishonch bilan aytishimiz mumkinki yurt boshimiz aytganlaridek yaqin kelajakda korrupsiyani ildizi bilan quritamiz. Agar korrupsiyani to'xtatmasak, uning ta'sirida milliy iqtisodiyotga putur yetadi, uyushgan jinoyatchilik kuchayadi, ma'naviyat izdan chiqib boshlaydi. Bundaylar hayotda hamma narsani sotish va sotib olish mumkin deb o'ylaydi. Bunday kimsalarga hayot uchun aziz sanaladigan hech bir narsani ishonib bo'lmaydi. Chunki ular otasonasi, qarindosh-urug'lari, yor-u birodarlarining yuzini yerga qaratishdan, boshini egishdan uyalmaydi. Ular farzandlariga harom luqma yedirayotganlarini anglamaydilar. Bunday oilada o'sgan o'g'il-qizlarning ham kelajakda halol yashashiga ishonish qiyindir. Bugungi kunda har bir davlatning eng asosiy muammolaridan biri bo'lib kelayotgan korrupsiyaga qarshi kurashda har bir davlatda o'ziga usullar bilan kurash olib borilmoqda. Har bir davlat o'z imkoniyat va ijtimoiy kelib chiqishidan kelib chiqqan holda o'ziga eng to'g'ri yo'lni tanlamog'i kerak.

Poraxo'rlikka ikki yoki undan ortiq shaxsning pora olish, pora berish bilan bog'liq bo'lgan g'ayrihuquqiy konfidentsiya bitimi, deb ta'rif berishimiz mumkin. Bitimdan pora oluvchi ham, pora beruvchi ham manfaatdor. Lekin bu manfaatdorlikdan uchinchi shaxslar, jamiyat va davlat zarar ko'radi. Pora olish, pora berish, pora olish-berishda vositachilik qilish, xizmatchini pora evaziga og'dirish, tovlamachilik bilan haq berishni talab qilish va boshqa yigirmadan ortiq korrupsiyaviy qilmishlar jinoyat deb e'tirof etilib, Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan jazo belgilab qo'yilgan. Ichki ishlar va prokuratura xodimlari zimmasiga bu jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning jinoyatini isbotlab, odil sudlovga topshirish vazifasi yuklatiladi. Tergov va sudlov amaliyotiga

⁴ O'zbekiston Respublikasining qonuni, 03.01.2017-yildagi 4-modda.

nazar tashlar ekanmiz, bu toifa jinoyatlarning juda ham ko'p ochilayotganining guvohi bo'lamiz. Bunga sabab korrupsiyaga qarshi kurashish vazifasi yuklatilgan idoralarning nazoratni susaytirib yuborgani, mas'uliyatni unutayotganidir, ehtimol. Eng achinarli holat bu Kadrlar masalasiga ham korrupsiyaning aralashishi islohotlar yo'liga va mamlakat taraqqiyotiga jiddiy xavf tug'diradi. Soliq, bojxona, moliya va boshqa muhim sohalarda bunday jinoyatlar sodir etilishi mamlakat iqtisodiy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillardan biri. Rahbar yoki mas'ul kishi qanday qilib korrupsiyaga qo'l uradi? Bunga qanday omillar sabab bo'ladi?. Bu savollarga javob har xil bo'lishi mumkin. Lekin shunisi aniqki, sotadigan, sotiladigan odam hech bir vazifani sidqidildan bajarmaydi. Korrupsiyaga aloqador odam qonunni buzishdan tashqari, o'zining kimligi, e'tiqodi madaniyati qay darajada ekanini ham oshkor qiladi. Bunday odam nafaqat moliyaviy ziyon-zahmat yetkazadi, balki davlatni, demokratiyani behurmat qilib, obro'sini to'kadi, unga ilm-u hunar o'rgatgan, obro' va mansab, non-tuz bergan el-yurtning, ustozlari-yu ota-onasining yuziga oyoq qo'yadi. Bir misol, oliy o'quv yurtida talabadan yo uning ota-onasidan pora olgan, tamagirlik qilgan mansabdor shaxsda iymon, vijdon, insoniylik degan tuyg'ular bo'lmaydi. Ular farzandlariga harom luqma yedirayotganini tushunishmaydi. Mana shu haqiqatni oliy o'quv yurtlaridagi har bir mansabdor yaxshi bilib olishi zarur.

Korrupsiyaga oid statistika malumotlarni to'xtalsak va taxlil qilib ko'radigan bo'lsak, Respublikamizda 2020-yil davomida korrupsiyaga oid sodir etilgan jinoyatlar kuyidagi ko'rinishga ega. Agentlikning malumotiga ko'ra sudlar tomonidan 2020-yil davomida jami 2 270 nafar shaxsga nisbatan 1 502 ta jinoyat ishi ko'rib chiqilganligi achinarli holdir albatta. Korrupsiya jinoyati bilan bog'liq masalalar yuzasidan javobgarlikka tortish quyidagicha 610 ta shaxsga axloq tuzatish ishlari, 539 shaxsga nisbatan ozodlikni cheklash, 403 ta shaxsga jarima, 300 ta shaxsga ozodlikdan maxrum qilish, 13 ta shaxsga muayyan huquqdan maxrum qilish va 4 ta shaxsga majburiy jamoat ishlari qo'llanildi. Shuningdek 47 nafar shaxs shartli xukm qilingan, 151 nafar shaxsga jazo qo'llanilmagan va 56 nafar shaxs esa jazodan ozod qilingan. Bundan

ko'rinib turibdiki bizni oldimizda korrupsiya bilan bog'liq muommolar hali hanuz bor. Shu o'rinda shuni takidlash joizki o'tgan ikkiki yil davomida korrupsiya bilan bog'liq muammolar sezilarli darajada kamaygani quvonarli holdir.

Korrupsiyani yo'qotishga oid o'z takliflarimni berib o'tsam. Avvalo korrupsion holatlarni ikkiga bo'lib olish kerak shunda kurashish oson bo'ladi go'yo dushmanni qo'shinini bo'lib hujm qilib yengishday. 1-kadrlar bilan bog'liq korrupsion holat bo'lsa. 2-ijtimoiy hayotda uchraydigan barcha holatlarga bo'linsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Birinchidan. Kadrlar masalasida ochiqlik, oshkoralik va shaffoflikni ta'minlash kerak ya'ni qaysi sohaga bo'lmasin nomzodlarni suhbat jarayonini ham o'ziga xos tarzda tizmlashtirish kerak bo'ladi. Misol uchun suhbat jarayoniga savollarni avvaldan kompyuterga joylanishi va ular rendum tarzida nomzodlarga savollarni tizimni o'zi taqdim qilishi bundan tashqari aynan suhbat jarayonini onlayn ko'rish imkoniyatini yaratilishi orqali korrupsiyani kadrlar masalasida to'xtatishga erishamiz deb o'ylayman.

Ikkinchidan. Ommaviy axborot vositalarida korrupsion holatlarni reklamasini doimiy qo'yib borilishi kerak, va u bilan bog'liq bo'lgan sud tergov ishlarini ham kim bo'lishidan qat'iy nazar ochiq va to'laligicha yoritilishi orqali ham biz xalqni ko'ngliga kirib boramiz va korrupsiya qanday illat ekanligini yoshu-qarilarda birdek tasavvur uyg'ota olamiz.

Uchinchidan. Korrupsiya holatini keltirib chiqarayotganlarni demak ko'pchiligi bilamiz mansabdor shaxslarni tashkil etmoqda, shuning uchun biz hozirda oliy ta'limda tahsil olayotganlar bilan jiddiy ishlashimiz kerak boisi ular ertangi mansabdor shaxslar. Talaba yoshlar bilan faqat korrupsiyaga qarshi kurash kuni yaqinlashishi bilan emas muntazam ravishda turli xil tadbirlarni o'tkazib borish kerak deb hisoblayaman. Bundan tashqari korrupsiya bilan bog'liq jinoyat sodir etganlarni sud jarayonini tez tez oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilishi bilan ham korrupsiyani bo'lg'usi kadrlar ongida qabih illat ekanligini va ular kelajakda bunday ishga qo'l urmasliglarini ishonch bilan ta'minlagan bo'lamiz.

Xulosa qilib aytganda har bir uyning qurilishi, albatta, poydevordan boshlanadi, chunki poydevori mustahkam uyda nuqson bo'lishi mumkin emas. Yurt kelajagi, poydevori yoshlardir. Ma'naviyati butun, iymoni mustahkam, bilimi to'kis yoshlari bor yurt ertasiga hech qanday korrupsiya xavf sola olmaydi. Negaki, uning bunday dushmani yengishga qodir quroli tarbiyali yoshlari bor. Iymon darslarini yod olgan yoshlar halol va haromning farqini tushunadi. Ma'naviyat bulog'idan suv ichgan avlod sahrodagi sarob va korrupsiya bir narsa ekanligidan xabardor bo'ladi. Shu bois poraxo'rlikni yengmoqchi bo'lgan mamlakat, avvalo, kelajak umidlarini korrupsiyaga nafrat, uning ayanchli oqibatlarini anglash ruhida tarbiyalaydi. Zero, ma'naviyatli yoshlarga orzudagi mukammal olamni yarata olishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Михаѳлов Матай А.В. Борьба с коррупцией в США (80-е годы) // Воп- росы истории:--1994.-№5.
2. Криминогия / Под ред. Н Ф Кулевой, Г. М. Миньковского-М.1994.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat MIRZIYOYEVning Oliy Majlisga Murojaatnomasidan,2020-yil 24-yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasining qonuni,03.01.2017-yildagi. 4modda.